



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil
MAXSUS SON

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

- 5 YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**
Oliy ta'lim tashkilotlari akademik erkinligining
Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi:
zarurat va istiqbollar
- 11 AZIZOV XUDOYQUL TOJIYEVICH**
Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslarini
ro'yobga chiqarish – muhim vazifa
- 15 HOSHIMXONOV AHROR MO'MINOVICH**
Xalqchil davlat qurish, davlat va jamiyat
boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirishda
fuqarolar ishtirokini kengaytirish masalalari
- 21 AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH**
Yangilangan bosh qomusimizda inson huquq
va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida
- 27 SAFAROV DJAXONGIR ISMOILOVICH**
Zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar
sharoitida parlament yuqori palatasi faoliyatini
isloh etish: asosiy tendensiyalar va rivojlanish
istiqbollari
- 37 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**
Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi
tushunchasining yuridik tahlili
- 43 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Jamoatchilik nazoratining muhim subyekti
sifatida ommaviy axborot vositalarining
konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 46 TOSHKANOV NURBEK BAHRIDDINOVICH**
Intellectual mulkning konstitutsiyaviy-huquqiy
himoyasi va uning ahamiyati
- 57 YULDOSHBEKOV AVAZBEK ALISHER O'G'LI**
Fuqarolarning soliqqa oid konstitutsiyaviy
burchlarini ta'minlashda soliq maslahati
institutining o'rni va ahamiyati
- 63 XAYITOV PANJI BUXAROVICH**
Yangi O'zbekistonning energetika tizimini
rivojlantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy
asoslari

- 70 DAVLATOVA GULIZA SHAVKAT QIZI**
Halol raqobatni rivojlantirish va monopol faoliyatni cheklashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 75 SHODIYEVA IRISA SOATMUROD QIZI**
Advokatlar maqomi e'tibor markazida
- 79 KAZAKOVA NOZIMA RUSTAM QIZI**
The new constitution of Uzbekistan:
A catalyst for democratic advancement

UDC: 347.9:342 (045)(575.1)

KONSTITUTSIYANING TO'G'RIDAN TO'G'RI AMAL QILISHI TUSHUNCHASINING YURIDIK TAHLILI

Abdullayeva Maftuna Murot qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti,

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

ORCID: 0000-0002-4083-3176

e-mail: Mary.Lennox.92@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yuridik kuchi masalasi ko'rib chiqiladi. Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchi uni boshqa hujjatlardan ajratib turadigan alohida huquqiy xususiyatdir. Bu Konstitutsiya normalari boshqa qonunlardan, asosan ijro hokimiyati hujjatlaridan hamisha ustun ekanligidadir; qonunlar va qonunosti hujjatlari Konstitutsiyada nazarda tutilgan organlar tomonidan va unda belgilangan tartibda qabul qilinishi kerak; agar qonun Konstitutsiyaga zid bo'lsa, u bekor qilinadi yoki unga muvofiqlashtiriladi. Mamlakatimizning asosiy qonuni oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va O'zbekiston Respublikasining butun hududida qo'llanadi. Aynan mana shu qoida konstitutsiyaviy normalardan haqiqiy huquqiy qo'llash uchun foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Konstitutsiyaning bevosita ta'siri – huquqiy munosabatlarni bevosita tartibga solish va sudlarda ishlarni konstitutsiyaviy qoidalar va normalar asosida hal qilish qobiliyatidir. Zamonaviy voqelik sharoitida har qanday konstitutsiya bitta muhim xususiyatga – to'g'ridan to'g'ri kuchga ega bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, qonun ustuvorligi, oliy yuridik kuch, to'g'ridan to'g'ri amal qilish, normativ-huquqiy hujjatlar, Konstitutsiyaviy sud, konstitutsiyaviy muhofaza

ЮРИДИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОНИМАНИЯ ПРЯМОГО ДЕЙСТВИЯ КОНСТИТУЦИИ

Абдуллаева Мафтуна Мурот кизи,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

докторант Ташкентского государственного

юридического университета

Аннотация. В статье рассматривается вопрос о юридической силе Конституции Республики Узбекистан. Высшая юридическая сила Конституции – это особое юридическое свойство, отличающее её от других актов. Оно заключается в том, что нормы Конституции всегда доминанты над положениями иных законов, а тем более – актами исполнительной власти; законы и подзаконные акты должны приниматься предусмотренными в Конституции органами и по установленной ею процедуре; в случае противоречия закона Конституции он либо отменяется, либо приводится в соответствие с ней. Основной Закон нашей страны имеет высшую юридическую силу, прямое действие и применяется на всей территории Республики Узбекистан. И именно это положение свидетельствует, о том, что конституционные нормы могут использоваться для реального юридического применения. Прямое действие Конституции – это способность осуществлять непосредственное регулирование правоотношений и разрешение дел в судах на основе конституционных положений и норм. В условиях современной действительности любая конституция обязана обладать одним неотъемлемым качеством – прямым действием.

Ключевые слова: Конституция, верховенство закона, высшая правовая власть, прямое применение, нормативные правовые документы, Конституционный суд, конституционная защита.

LEGAL ANALYSIS OF THE CONCEPTION OF DIRECT EFFECT OF CONSTITUTION

Abdullayeva Maftuna Murot kizi

doctoral student of
Tashkent State University of Law, PhD in Law

Abstract. *The article deals with the issue of the legal force of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. The supreme legal force of the constitution is a special legal property that distinguishes it from other acts. It lies in the fact that the norms of the Constitution always take precedence over the provisions of other laws, and even more so acts of executive power; laws and by-laws must be adopted by the bodies provided for in the Constitution and in accordance with the procedure established by it; if a law conflicts with the Constitution, it is either repealed or brought into line with it. The Basic Law of our country has the highest legal force and direct effect and is applied throughout the territory of the Republic of Uzbekistan. And it is this provision that indicates that constitutional norms can be used for real legal application. The direct effect of the Constitution is the ability to directly regulate legal relations and resolve cases in courts based on constitutional provisions and norms. In the conditions of modern reality, any constitution must have one inalienable quality – direct action.*

Keywords: *constitution, rule of law, supreme legal power, direct application, regulatory legal documents, Constitutional Court, constitutional protection*

2023-yilda yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan adolatli va xalqparvar davlat barpo etish yo‘lida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi davlatchilik taraqqiyotining muhim tarixiy bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Konstitutsiyamizda asosiy prinsiplar sifatida davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, konstitutsiya va qonun ustunligi hamda tashqi siyosatga oid normalarning belgilanganligi hamda mazkur prinsiplarni mustahkamlash maqsadida qator o‘zgartirishlar kiritilgani ahamiyatlidir. Xususan, konstitutsiya va qonun ustunligini ta‘minlash sohasida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi”, “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umum e‘tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi huquqiy

tizimining tarkibiy qismidir” mazmunidagi qoidalarning kiritilishi demokratik huquqiy davlatning muhim talabi bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi talablariga qat‘iy va og‘ishmay amal qilishga oid normalarni mustahkamlaydi.

Konstitutsiya va qonun ustunligini ta‘minlash sohasida asosiy qonunimizning 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni ta‘kidlagan edi: “Konstitutsiyamizda belgilangan qonun ustuvorligi prinsipi jamiyatimizda inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash, barcha islohotlarni samarali amalga oshirishning muhim kafolatidir. Ayni vaqtda qonunlarning to‘liqligi, hayotiyliigi va to‘g‘ridan to‘g‘ri amalga oshirish mexanizmlariga ega ekani haqida so‘z yuritganda, bu borada hali ko‘p ish qilishimiz kerakligini ta‘kidlash zarur [1].

Konstitutsiyaning ustunligi prinsipi mamlakat huquq tizimida, huquqiy hujjatlar iyerarxiyasida o‘z o‘rnini ko‘rsatadi va fuqarolarning o‘z konstitutsiyaviy huquq va

erkinliklarini amalga oshirishda faol pozitsiyasini shakllantirishga qaratilgan. Konstitutsiyaning ustunligi mamlakatning asosiy qonuni sifatida jamiyatdagi obro'sini ham nazarda tutadi. Konstitutsiyaning ustunligi tushunchasi konstitutsiyalarning huquq manbalari tizimida iyerarxik ustunlik o'rnatish vakolatini tavsiflaydi. Konstitutsiyaning ustunligi ochiq ziddiyatli holatlarda va boshqa normalarda konstitutsiyaviy qoidalarga nomuvofiqlikni ko'rsatadigan talqin bo'lgan hollarda konstitutsiya huquqiy tizimdagi boshqa har qanday normadan ustun bo'lishini nazarda tutadi. Shuningdek, ustunlik prinsipi nafaqat huquqiy normalarning daraja tartibiga, balki davlatning institutsional tuzilishiga ham ta'sir qiladi, chunki konstitutsiyaning ustunligi qonun chiqaruvchining ham bo'ysunishini ta'minlaydi [2, 7-b.]. Qonun chiqaruvchining vakolatlari konstitutsiya darajasida cheklanishining ikki turini qayd etish mumkin: moddiy cheklovlar, O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo'lishi mumkin emasligi hamda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik choralari belgilanganligi, protsessual cheklovlar, qonunlar qabul qilishda yoki Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritishda parlament belgilangan konstitutsiyaviy tartiblarga rioya qilishi kerak. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan konstitutsiyaviy qonun yoki O'zbekiston Respublikasi referendumini bilan kiritiladi.

Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega hujjat sifatidagi maqomi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, Konstitutsiya mamlakatning asosiy qonuni bo'lib, qonunchilik iyerarxiyasida yuqori o'rinda turadi, undan keyin qonun hujjatlari, ya'ni qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari; Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari o'rin egallaydi;

ikkinchidan, konstitutsiya barcha davlat organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir. Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar konstitutsiyaviy prinsip va normalarga muvofiq faoliyat yuritishlari kerak;

uchinchidan, konstitutsiya tartibga solish hajmining keng qamrovliligi bilan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ya'ni u nihoyatda muhim va keng ko'lamdagi ijtimoiy munosabatlar doirasini tartibga soladi. Ko'pgina konstitutsiyaviy-huquqiy institutlar alohida qonun va qonun hujjatlarida aniqlashtiriladi. Masalan konstitutsiyada konstitutsiyaviy shikoyat institutiga oid normalar mavjud bo'lsa-da, mazkur normalar "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunda batafsil yoritiladi;

to'rtinchidan, maxsus qabul qilish tartib-taomiliga egaligi, ya'ni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 154-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar tegishincha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan Konstitutsiyaviy qonun yoki referendum yo'li bilan kiritilishi belgilangan;

bashinchidan, maxsus muhofaza qilish shakliga ega. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi ishlarni ko'ruvchi Konstitutsiyaviy sud tomonidan muhofaza qilinadi. Ta'kidlash joizki, bir qator davlat hokimiyati organlari (parlament, prezident, prokuratura, sud hokimiyati organlari) konstitutsiyaviy nazorat funksiyasiga egadir. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, nazorat funksiyasi faqatgina bir organ tomonidan emas, turli organlar tizimi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Biroq konstitutsiyaning maxsus muhofazasi faqatgina Konstitutsiyaviy sud tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, Konstitutsiyaviy sudning qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq emas deb topilgan normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi o'zining amal qilishini tugatadi, qolaversa, Konstitutsiyaga muvofiq emas deb topilgan normativ-huquqiy hujjat asosida qarorlar qabul qilgan davlat organlari ularni bir oy ichida qaytadan ko'rib chiqishi kerak bo'ladi.

Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilinishi qoidasining mavjudligi konstitutsiyaning oliy yuridik kuchini yanada mustahkamlaydi. Yangi Konstitutsiya tariximizda bevosita xalq tomonidan qabul qilinib, to'g'ridan to'g'ri amalga kiritiladigan birinchi hujjatdir. Ya'ni xalq ovoz berganidan keyin Oliy Majlisda muhokamadan o'tishi va Prezident tomonidan imzolanishi zaruriyati ham qolmaydi.

Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilinishi tushunchasini yoritishda turli xil yondashuvlar mavjud. Xususan, B.I. Kojoxin Konstitutsiya davlatning butun huquqiy tizimining asosini tashkil etuvchi huquqiy hujjat sifatida bevosita (to'g'ridan to'g'ri kuchga ega siyosiy-huquqiy hujjat sifatida) va mazkur davlatda qo'llanadigan huquqiy, siyosiy va axloqiy-etik normalarning butun majmuasi yordamida amalga oshiriladi [3, 87-bet]. Muallif mazkur fikrlar orqali Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri ta'sirini emas,

konstitutsiyani amalga oshirish shakllaridan biri bo'lgan huquqiy hujjatni vositachilik qilmasdan qo'llash imkoniyatini ko'rib chiqishni nazarda tutadi.

A.B. Vengerovga ko'ra, Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri ta'siri shuni anglatadiki, sud, ijro etuvchi hokimiyat organlari birinchi marta Konstitutsiya normalarini muayyan nizolarni hal qilishda qonuniy ravishda qo'llash, ushbu normalardan asosli ma'muriy hujjatlar chiqarish, fuqarolarning shikoyat va arizalarini ko'rib chiqish uchun foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. "Konstitutsiyaning bevosita harakati huquqni qo'llashning ajralmas elementiga aylanadi, – deb ta'kidlaydi u. – Konstitutsiyani to'g'ridan to'g'ri qo'llashning ikkita asosiy shakli yaqqol ko'rinib turibdi: buning uchun tegishli tartib-qoidaga ega bo'lgan Konstitutsiyaviy sud va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shu jumladan, boshqa sudlar" [4, 608-bet].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ta'kidlash joizki, konstitutsiyani to'g'ridan to'g'ri qo'llash birinchi navbatda fuqarolar tomonidan o'z huquq va erkinliklarini konstitutsiyaga havola qilgan holda davlat organlaridan to'g'ridan to'g'ri qo'llashni talab qilish bilan ahamiyatlidir. To'g'ridan to'g'ri qo'llash quyidagilarda namoyon bo'ladi:

fuqarolari va boshqa jismoniy shaxslar, konstitutsiyaviy qonunlarda nazarda tutilgan hollarda esa yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy normalar va ularni himoya qilish usullarini bevosita amalga oshirish;

davlat organlari, umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan aniq ishlarni hal qilishda konstitutsiyaviy normalarni qo'llash;

Konstitutsiyaviy sudlov organi tomonidan konstitutsiya normalarini bevosita qo'llash kabilar.

Nazariy jihatdan konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi tushunchasi orqali konstitutsiyaning vaqt, huquq va shaxslar doirasi bo'yicha harakati, konstitutsiya normalarini ijro etish, rioya qilish, foydalanish hamda davlat organlariga konstitutsiya nor-

malarini to'g'ridan to'g'ri qo'llash uchun yo'naltirilganligi kabilarni tushunish mumkin.

Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilinishini uchta xususiyatga qarab baholashimiz mumkin. Birinchidan, shaxsning konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklaridan to'g'ridan to'g'ri foydalanishi; ikkinchidan, barcha subyektlarning konstitutsiyada belgilangan talab va majburiyatlarga rioya qilishi; uchinchidan, vakolatli davlat organlarining konstitutsiyaviy normalarni qo'llashi va ijrosini ta'minlashi lozim. Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi ijtimoiy munosabatlarni bevosita konstitutsiya normasini qo'llagan holda tartibga solish va hal etishdan iborat [5].

Milliy sud amaliyotida Konstitutsiyani qo'llash, sud hujjatlarini (hal qiluv qarori, hukm, qaror) konstitutsiyaviy normalar bilan asoslash sud statistikasida deyarli uchramaydi. Odatda kodeks, qonun yoki qonunosti hujjatlari bilan asoslash amaliyoti mavjud bo'lgan. Endilikda, birinchi navbatda, konstitutsiyaga murojaat qilinadi hamda asoslanadi. Masalan, fuqaroning qonunchilikda nazarda tutilmagan, lekin konstitutsiyada nazarda tutilgan birorta huquqi buzilgan holdalarda fuqaro aynan konstitutsiyada mening bu huquqim kafolatlangan, deb tegishli huquqini tiklashi mumkin. Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilinishini belgilash respublika bo'yicha umumiy sud amaliyoti shakllanishiga ham imkon beradi.

Bugungi kungacha amaliyotda odatda advokatlarning shikoyatlarida konstitutsiya normalariga havola keltirilgan. Advokatlar murojaatida konstitutsiyaning tegishli moddalariga muvofiq, deb asoslasalar-da, odatda, sud unga munosabat bildirganda kodeksda norma ko'rsatilgan bo'lsa hal qilgan. Ammo bu kabi normalar kodeksda bo'lmasa, kodeks doirasidan chetga chiqishga imkoniyatim yo'q degan vaj bilan e'tiborsiz qoldirgan.

Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilinishini belgilash orqali konstitutsiya normalari ularni qo'llash tartibi alohida hujjatlarda mavjud yoki mavjud emasligidan qat'i nazar to'g'ridan to'g'ri amal qilishiga erishiladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Germaniya konstitutsiyasining 1-moddasida, Braziliya konstitutsiyasining 5-moddasi, Rossiya Federatsiyasi konstitutsiyasining 15-moddasi, Qozog'iston konstitutsiyasining 4-moddasi, Polsha konstitutsiyasining 8-moddasi, 2-qismi, Bolgariya konstitutsiyasi 5-moddalarida konstitutsiya normalarining bevosita to'g'ridan to'g'ri ishlashi belgilab qo'yilgan.

Xulosa qilib aytganda, konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi asosiy qonunning yuridik xususiyatidir. Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi faqatgina konstitutsiyada belgilangan qoidalarni qo'llash emas, balki uni amalga oshirishni ham anglatadi.

REFERENCES

1. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. /O'zbekiston respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 07.12.16. [Ensuring the rule of law and human interests is the guarantee of the country's development and people's well-being. /Speech of the elected President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the solemn ceremony dedicated to the 24th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan]

2. Jutta Limbach, The Concept of the Supremacy of the Constitution, 64 mod. l. rev. 1, 7 (2001).
3. Kojoxin B.I. Некотoрые особенности реализации российской Конституции / [Some features of the implementation of the Russian Constitution]. Bulletin of St. Petersburg University. Series 6. Philosophy, political science, sociology, psychology, law. – 1996. – Issue. 2. – pp. 87–93.
4. Vengerov A.B. Teoriya gosudarstva i prava: ucheb. [dlya yurid. vuzov] / A.B. Vengerov. – 5-ye izd., ster. – M.: Omega-L, 2008. – 608 s. [Theory of state and law: textbook..] [for legal universities] / A.B. Vengerov. – 5th ed., – M.: Omega-L, 2008. – 608 p.
5. Sh. Zulfiqorov. “Konstitutsiyaning asosiy kuchi, uning to‘g‘ridan – to‘g‘ri ishlashidir!” <https://darakchi.uz/uz/164822> [“The main strength of the constitution is its direct operation!”].

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL
MAXSUS SON

*Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi*

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ergashev Ikrom

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: M. Sharifova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 10,0.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: .

TDYU tipografiyasida chop etildi.